275.	Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, ularning ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan quyidagi kompleks chora-tadbirlarni tashkil etish:		Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, OvaO‘MTV, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi, Yozuvchilar uyushmasi, “Kamolot” YIH, “Mahalla” jamg‘armasi,	-	-

	<p>“Biz Vatanga tayanchimiz”, “Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar” degan shiorlar ostida aksiyalar;</p> <p>“Adabiyot va san’at — shaxs ma’naviyatini boyitish va yuksaltirish omili” mavzuida yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, adabiyotshunos olimlar ishtirokida uchrashuvlar;</p> <p>badiiy adabiyotlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish, axborot-resurs markazlarini yangi kitoblar bilan boyitish;</p> <p>“Oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi” mavzuida axborot va metodik materiallar tayyorlash;</p> <p>Vatanimiz ravnaqini ta’minlashda yoshlarning mas’uliyatini oshirishga qaratilgan “Eng buyuk jasorat — ma’naviy jasoratdir” mavzuida davra suhbatlari;</p> <p>yoshlar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, yoshlarda internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilish;</p> <p>“Fuqarolik jamiyatida shaxs tarbiyasi va unda oila institutining o‘rni” mavzuida anjuman o‘tkazish.</p>	<p>Yil davomida</p> <p>2017-yil may</p> <p>har chorakda</p> <p>2017-yil reja asosida</p> <p>2017-yil noyabr</p>	<p>Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zNNTMA</p>			
276.	<p>To‘liq davlat ta’minotidagi yetim bolalar, ota-ona qarovsiz qolgan bolalar hamda 1-guruh ko‘zi ojiz</p>	2017-yil may	<p>Davlat test markazi, OvaO‘MTV, tasarrufida oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar</p>	-	-	M lo ch

	<p>nogironlarga ta'lim olishda keng imkoniyatlar yaratish maqsadida:</p> <p>oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda alohida davlat granti ajratgan holda imtiyozlar belgilash;</p> <p>hududlar kesimida ayrim yo'nalishlar bo'yicha maqsadli qabul kvotalarini tasdiqlash;</p> <p>pedagoglarning ilmiy, uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tashkiliy-uslubiy ishlari bo'yicha faoliyatini soatlar miqdorisiz ish turlari va mazmuni asosida lavozimlarga qo'yilgan malaka talablariga muvofiq belgilash.</p>					
277.	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.</p>	<p>2017-yil aprel-avgust</p>	<p>OvaO'MTV, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi,</p>	<p>1 583,0</p>	<p>Oliy ta'lim muassasalarini rivojlan-tirish jamg'armasi mablag'lari</p>	
278.	<p>Talabalar shaharchasida madaniy dam olish markazini tashkil etish va undan bepul foydalanishni yo'lga qo'yish.</p>	<p>2017-yil IV chorak</p>	<p>OvaO'MTV, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi,</p>	<p>5 300,0</p>	<p>Investitsiya dasturi doirasida Davlat budjeti mablag'lari</p>	
279.	<p>Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vazirlik va idoralar rahbarlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri uzatiladigan ochiq muloqotlar tashkil etish.</p>	<p>Yil davomida</p>	<p>"Kamolot" YIH, OvaO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mexnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, IIV, Axborot texnologiyalari vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, MTRK, O'zEOAVMA, vazirlik va idoralar</p>	<p>40,0</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	

280.	Uyushmagan yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun yetarli shart-sharoit yaratish maqsadida: mahallalarda zamonaviy sport maydonchalarini barpo etish, uyushmagan yoshlar o'rtasida musobaqalar tashkil etish (street sport).	Yil davomida	Madaniyat va sport ishlari vazirligi, OvaO'MTV, "Kamolot" YIH, "Mahalla" jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	500,0	Ijrochilar mablag'lari	ra to M m yo sp sh ta
281.	Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar doirasida Jizzax viloyatida "Barkamol avlod" sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish.	2017-yil may	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Moliya vazirligi, Jizzax viloyati hokimligi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	14 000,0	Davlat budjeti, budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, ijrochilar mablag'lari	sp o' ch fir o' m ta jil yo ba uc ya
282.	Oliy ta'lim muassasalarining bakalavr yo'nalishida to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan chin yetim, Mehribonlik uyida tarbiyalangan va ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, kam ta'minlangan oilalardagi iqtidorli talabalarni rag'batlantirish maqsadida "Ta'lim granti", "Kasaba uyushmalari stipendiyasi" loyihalari asosida stipendiyalar to'lash.	Yil davomida	OvaO'MTV, "Mahalla" xayriya jamoat fondi, "Kamolot" YIH, Kasaba uyushmalari federatsiyasi	"Mahalla" fondi -400,0, "Kamolot" YIH -400,0, Kasaba uyushmalari federatsiyasi — 270,0	Ijrochilar mablag'lari	ish ni im et hi iq ol ta uc ya ul va m ra
283.	Mobil internet foydalanuvchilariga mo'ljallangan, yoshlarni yuksak axloqiy	2017-yil III chorak	Axborot texnologiyalari vazirligi, OvaO'MTV, "Kamolot" YIH	280,0	Ijrochilar va homiyalar mablag'lari	va o' O

	tarbiyalash, ularni intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy o‘yinlarni tashkil etish.					
284.	Har bir hudud markazida “Kamolot” kitob do‘konlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	Yil davomida	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, “Kamolot” YIH, Davarxitektqurilish	-	“Kamolot” YIH mablag‘lari	
285.	“Xalq amaliy san’ati — yoshlar qalbida” xalqaro amaliy san’at ko‘rgazmasini o‘tkazish.	2017-yil II chorak	O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy amaliy markazi, Tasviriy oyina, “Kamolot” YIH	Xarajatlar smetasiga muvofiq	Ijrochilar mablag‘lari	
286.	Quyidagi madaniyat va san’at festivallari, ko‘rik-tanlovlarni tashkil etish: “Bahor nafasi” xalqaro san’at festivali; “Musiqaga chorlaydi yoshlar!” madaniyat haftaligi; “Seni kuylaymiz, zamondosh!” O‘zbekiston teatrlarining IV Respublika ko‘rik-festivali; “Onam aytgan allalar” festivali; “Yoshlik bahori” respublika yosh opera ijrochilari festivali; “Sozlar navosi” xalq cholg‘ulari ijrochilari respublika tanlovi; YUNESKO representativ ro‘yxatiga kiritilgan “Shoshmaqom”, “Askiya”, “Palov” va boshqa nomoddiy	2017-yil may 2017-yil may-iyun 2017-yil iyun 2017-yil may 2017-yil aprel 2017-yil may 2017-yil oktyabr	Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi, Toshkent shahar hokimligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, O‘zbekteatr, MTRK	Xarajatlar smetasiga muvofiq	Ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari doirasida, ijrochilarning budjetdan tashqari mablag‘lari	

	madaniy meroslar bo'yicha "O'zbek madaniy merosi — jahon nigohida!" nomli festival.					
287.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nihol" mukofoti saralash bosqichlari va unitantanali ravishda topshirish marosimini yuqori saviyada tashkil etish.	2017-yil III chorak	Madaniyat va sport ishlari vazirligi, "Kamolot" YIH	Xarajatlar smetasiga muvofiq	Davlat budjeti va homiylar mablag'lari	eg yo ch sa ke to qu
288.	Turli sohalarda mehnat qilib, xalqimiz hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan zamon qahramonlari faoliyati to'g'risida hujjatli filmlar yaratish, ular bilan muntazam ravishda adabiy kechalar o'tkazish.	Yil davomida	O'zbekkino, O'zFA, MTRK	Xarajatlar smetasiga muvofiq	Davlat budjeti va homiylar mablag'lari	yu er va ta m os ish
289.	Yoshlar o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ularga tibbiy ko'rikdan doimiy o'tishning ijobiy tomonlarini tushuntirish maqsadida ta'lim muassasalari, mahallalar hamda tibbiyot punktlarida "Salomatlik kunlari"ni tashkil etish.	Yil davomida	"Kamolot" YIH, Xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, OvaO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, "Mahalla" jamg'armasi	-	Ijrochilar mablag'lari	yo tu sh tib yu yo va ye ijo ko
290.	Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish maqsadida: fuqarolar yig'ini huzuridagi "Ota-onalar universiteti" faoliyatida foydalanish uchun uslubiy qo'llanmalar va ko'rgazmali materiallar ishlab chiqish; fuqarolar yig'ini xodimlari va faollar uchun "Yosh avlod tarbiyasida ota-onalar	Yil davomida iyun avgust	"Mahalla" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi	80,0	Ijrochilar mablag'lari	da hu ax ot sa na ta or ib qa riv

	mas'uliyatini oshirish" mavzuida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish.					
291.	Mustahkam mafkuraviy immunitetga ega yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2017-yil mart, alohida jadval asosida	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Oila" markazi, "Mahalla" jamg'armasi, "Kamolot" YIH, IIV	100,0	Ijrochilar mablag'lari	
292.	Notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ot-onalarining mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlar, seminarlar o'tkazish, buklet, plakat, ko'rgazmali qo'llanmalar chop etish, ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil qilish.	Yil davomida	"Kamolot" YIH, Xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'liq saqlash vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyas kengashi, IIV, Adliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, OvaO'MTV, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, "Sog'lom avlod uchun" fondi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi, MTRK, O'zNNTMA	200,0	Ijrochilar mablag'lari	
V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, shuningdek, vazmin, o'zaro foydalanish va tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar						
5.1 Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar						
293.	Yirik ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar	Yildavomida	IIV, MXX, FVV, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	-	-	

	kompleksini amalga oshirish.					
294.	O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	2017-yil I chorak	MXX, IIV, Mudofaa vazirligi, Moliya vazirligi,	-	-	
295.	Transport kommunikatsiyalari xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining loyihasini ishlab chiqish.	2017-yil I chorak	IIV, MXX, FVV, TIAISV, O'zbekiston temir yo'llari, O'zavtoyotl, O'zavtodaryotrans	-	-	
296.	Yirik konchilik va qayta ishlovchi sanoat obyektlarining	2017-yil III-IV chorak	NKMK, O'zbekneftgaz, MXX, Moliya vazirligi,	-	-	

	xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.		FVV, IIV, Sanoatgeokontexnazorat			Pr lo bi m va ob ku ch xa ta m ak ch be
297.	Kiberxavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga oid Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish.	2017-yil III chorak	Axborot texnologiyalari vazirligi, MXX	-	-	Re M lo ho du gl ki ol ye ta no hu ch be
298.	Milliy kontentni rivojlantirish, davlat tilidagi ta'lim, ilmiy-ma'rifiy, yoshlar ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslarini, multimedia mahsulotlarini yaratish va targ'ib qilish mexanizmlarini takomillashtirish.	2017-yil II chorak	Axborot texnologiyalari vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, "Kamolot" YIH, O'zMAA, O'zbekkino, MTRK, OvaO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, O'za, Milliy g'oya va mafkura markazi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Din ishlari qo'mitasi, Milliy kutubxona, vazirlik va idoralar	-	-	M lo ko ax ya yo in ul iln re ta so riv an m ha et SH lo

299.	Diniy ekstremizm va missionerlik faoliyatiga qarshi kurashish, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2017-yil I chorak	Din ishlari bo'yicha qo'mita, Respublika baynalmilal milliy madaniy markazi, IIV, MXX, SMTI, Adliya vazirligi	-	-	
300.	Diniy tashkilotlar va birlashmalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilab berishga qaratilgan Diniy sohadagi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining loyihasini ishlab chiqish.	2017-yil III chorak	Din ishlari bo'yicha qo'mita, Adliya vazirligi, SMTI, vazirlik va idoralar	-	-	
301.	Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasi loyihasini hamda bugungi kun talablarini inobatga olgan holda, Respublika baynalmilal milliy madaniy markazi faoliyatini takomillashtirish	2017-yil IV chorak	Respublika baynalmilal milliy madaniy markazi, Adliya vazirligi, SMTI, vazirlik va idoralar	-	-	

	bo'yicha takliflar tayyorlash va kiritish.					m si us na
302.	Mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy qudrati va harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish.	2017-yil III chorak	Mudofaa vazirligi, IIV, FVV, TIV, MXX, SMTI	-	-	ta D na xa K ta ja ho ta ha ha ta ko ta O R xa va lo ta ta qq uy m tu xi or or o' ha a' ta Q no hu ish
303.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika turlari bilan jihozlash dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2017-yil III chorak	Mudofaa vazirligi, IIV, FVV, MXX	-	-	O R K hu ta za

						ya bi ch na
304.	<p>Xalqaro harbiy va harbiy-texnik hamkorlik sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy va shartnomaviy bazalarni tahlil qilish.</p> <p>Ushbu sohada xorijiy sheriklar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish va takliflar tayyorlash.</p>	2017-yil IV chorak	Mudofaa vazirligi, IIV, TIV, vazirlik va idoralar	-	-	m ta O ha ha an hu xa ta in o' tiz un us ist da ko ha ri qa ish
305.	<p>Radiatsiya xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish.</p>	2017-yil I chorak	FVV, SSV, IIV, DBQ, Sanoatgeokontexnazorat	-	-	lo Ra ta ta bo ta re ra ta an re ta ta bo m o' m et bo na
306.	<p>Favqulodda vaziyatlar to'g'risida xabar berish va aholini xabardor</p>	2017-yil II chorak	FVV, Axborot texnologiyalari vazirligi,	-	-	M lo

	qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.		IIV, MXX, Moliya vazirligi			fa da bo to os fu sh o' qi va bi ke bo da bo o' ta tiz bi na
307.	Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish.	Yil davomida	Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, TIV	-	-	ta fo ba sa ch yu m et m va na
308.	Fuqarolar muhofazasi tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularni moddiy-texnika vositalari bilan jihozlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish.	2017-yil I chorak	FVV, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar	-	-	Re Pr lo m fu tu ta jil ta ul fu ko za vo ta m

						et m
309.	Favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlarga tayyorgarligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2017-yil II chorak	FVV, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Moliya vazirligi, "Mahalla" jamg'armasi	-	-	M lo fa ah os qa or bo ah ha fa an ta ish
310.	Tabiiy, texnogen va ekologik xarakterdagi favqulodda vaziyatlar ehtimolini monitoring va prognozlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish.	2017-yil IV chorak	FFV, IIV, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, vazirlik va idoralar	-	-	M lo ta ek fa eh pr ya m ya ke tu te ol ba be
5.2. Vazmin, o'zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor						
311.	Asosiy xorijiy sheriklar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishning hamda ular bilan hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarining asosiy prinsiplarini belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasining 2017-yilga mo'ljallangan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati	2017-yil I chorak	TIV, TIAISV, Iqtisodiyot vazirligi, MXX, Mudofaa vazirligi, SMTI, XMATM	-	-	ta str bi m m to sh siy so m o' us

	strategiyasining loyihasini ishlab chiqish.					bu na
312.	<p>O'zbekistonning xorijiy sheriklar bilan 2017-yildagi siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorligini rivojlantirishga doir "Yo'l xaritasi" loyihasini ishlab chiqib, unda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>oliy va yuqori darajalardagi tashriflar, uchrashuvlar va muzokaralarni tayyorlash va tashkil etish;</p> <p>xavfsizlikning dolzarb masalalari bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar darajasidagi maslahatlashuvlarni o'tkazish;</p> <p>ikki va ko'p tomonlama shakllardagi tashabbuslarni, shu jumladan, o'zaro hamkorlikni kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish.</p>	2017-yil I chorak	TIV, TIAISV, Oliy Majlis Senati (kelishuv asosida), Iqtisodiyot vazirligi, MXX, Mudofaa vazirligi, IIV, vazirlik va idoralar	-	-	xa da si' m ko m ta m xa ob yo ta im
313.	<p>O'zbekistonning xorijiy sheriklar bilan 2017-yildagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlanishi va kengayishini ta'minlashga doir "Yo'l xaritasi" loyihasini ishlab chiqib, unda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>O'zbekiston korxonalarining mahsulotlari va</p>	2017-yil I chorak	TIV, TIAISV, Oliy Majlis Senati (kelishuv asosida), Iqtisodiyot vazirligi, vazirlik va idoralar	-	-	xa qi O sh iq te m ha ri ke m ek os in te

	<p>xizmatlarini tashqi bozorga eksport qilishni kuchaytirib borish;</p> <p>O‘zbekistonga investitsiyalarni, ilg‘or texnologiyalarni, sayyohlar oqimini, shuningdek, grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik ko‘maklarni jalb etish;</p> <p>Respublikaning transport-tranzit imkoniyatlarini oshirish, tashqi savdo yuk tashish ishlari uchun qulay sharoitlarni shakllantirish;</p> <p>ta‘lim, fan va texnika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish.</p>					sa im et im
314.	<p>O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi ijobiy nufuzini keng targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni tayyorlash, tasdiqlash va amalga oshirilishini ta‘minlash.</p>	2017-yil IV chorak	<p>TIV, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, Oliy Majlis Senati (kelishuv asosida), Moliya vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, O‘zMAA, O‘zbekkino, vazirlik va idoralar</p>	-	-	ta na xa m qa ta ta (k su b. ag ta ag ax bo in fa qu so to m or xa nu os

						<p>m xc el ax ye m tre o' ki ha re ja za hu ya bu da ha ha ba ki ul o'</p>
315.	<p>Quyidagi hujjatlarni ishlab chiqish va kiritish: “O‘zbekiston Respublikasi diplomatik xizmati to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonunlar loyihalarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi konsullik ustavi (yangi tahriri) loyahasini; yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi to‘g‘risida”gi nizomning loyahasini, jumladan, vazirlik faoliyatini, birinchi navbatda xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarning O‘zbekistonga</p>	Yil davomida	Vazirlar Mahkamasi, TIV, Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi, vazirlik va idoralar	-	-	<p>Re va qa O siy as ta di xc m xa tu sa ya m va an ya ni ish fa ta ju in</p>

	<p>investitsiyalarni jalb etish hamda mamlakatimiz mahsulotlarini xorijiy bozorlarga olib chiqish masalalari bo'yicha faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar ko'rilishini nazarda tutuvchi loyihani.</p>					<p>et sa bo ku O el fa ko m hu al m ko be</p>
316.	<p>O'zbekiston Respublikasining 2017-2020-yillarga mo'ljallangan xalqaro shartnomaviy faoliyatini takomillashtirishga doir ish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash, unda quyidagilarni nazarda tutish: O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan faoliyati shartnomaviy-huquqiy bazasini inventarizatsiya qilish va tanqidiy tahlildan o'tkazish; istiqbolli hamda mamlakatimiz uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan shartnomalar hisobiga mavjud shartnomaviy-huquqiy bazani kengaytirish; O'zbekiston tomonining xalqaro huquq ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etishi; xalqaro shartnomalarning hisobga olinishi va tizimlashtirilishini nazarda tutuvchi elektron bazani yaratish, shuningdek, zamonaviy</p>	Yil davomida	Vazirlar Mahkamasi, TIV, TSV, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, vazirlik va idoralar	-	-	<p>O sh ba ko ta so yo sh bo ch sh an us tiz na</p>

	axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ular muntazam monitoring qilinishi va inventarizatsiyadan o'tkazilishini ta'minlash.				
317.	Qo'shni davlatlar bilan Davlat chegaralarini huquqiy rasmiylashtirish bo'yicha muzokaralar jarayonini davom ettirishni nazarda tutuvchi Davlat chegaralarini dyelimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari bo'yicha 2017-yilga mo'ljallangan tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	2017-yil I chorak	TIV, Yergeodezkadastr, MXX, DChQQ, IIV, DBQ, Adliya vazirligi	-	-
318.	Respublikamizning turli millat vakillari ishtirokida mahallalarda, mehnat jamoalari va ta'lim muassasalarida millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, vatanparvarlik va daxldorlik fazilatlarini targ'ib qilish, o'zaro hurmat va birdamlik vaziyatini yanada mustahkamlash maqsadida Respublika baynalmilal milliy madaniy markazining 25 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston — umumiy uyimiz" shiori ostida bayram tadbirlarini o'tkazish.	2017-yil I chorak	Respublika baynalmilal milliy madaniy markazi, Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatlari kengashi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, "Mahalla" jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	100,0	Ijrochilar mablag'lari
319.	Jamiyatda hukm surayotgan o'zaro hurmat va birdamlik vaziyatini yanada mustahkamlash maqsadida: "Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi — oliy ne'mat";	Yil davomida Shonli sanalar arafasida	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Mahalla" jamg'armasi, Respublika baynalmilal milliy madaniy markazi, "Nuroni" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Oila" ilmiy-amaliy markazi,	50,0	Ijrochilar mablag'lari

	<p>“Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik — barqarorlik kafolati”;</p> <p>“Qo‘shnichilik munosabatlarda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida bo‘lish — yurtimizda ahillikni mustahkamlashning eng muhim sharti”;</p> <p>“Inson manfaatlari — ulug‘ qadriyat” mavzularida targ‘ibot tadbirlari o‘tkazish.</p>		<p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>		
320.	<p>Xalq diplomatiyasini faollashtirish, O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma‘rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi faoliyatini takomillashtirish.</p>	<p>2017-yil II chorak</p>	<p>TIV, Respublika baynalmilal milliy madaniy markazi</p>	-	-

Izoh: normativ-huquqiy hujjatlar tegishli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasi va predmetiga qarab qayta ko‘rib chiqilishi yoki bir hujjatga birlashtirilishi mumkin.

2017-yilda Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari:
37 687,8 mlrd so‘m va 8 349,3 mln AQSh doll.,
shundan:

	so‘mda	AQSh dollarida
Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari	5 263,1 mlrd	1 625,8 ming
Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag‘lari	15 423,0 mlrd	311 510,0 ming
Tijorat banklari kreditlari	16 941,2 mlrd	-
Xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari mablag‘lari va beg‘araz yordam	60,5 mlrd	8 036 157,8 ming

(8-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi PF-5204-sonli Farmoni tahririda)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga

SHARH

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbiarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Harakatlar strategiyasi);

Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi o'rinlarda — Davlat dasturi) tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.


Xususan, loyihalarning "Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi" portalida yo'lga qo'yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, 2017-yil 23 — 27-yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbat tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbiarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy  ag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

Davlat dasturining “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” deb nomlangan birinchi yo‘nalishini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o‘zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta‘minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo‘ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Davlat dasturining ikkinchi yo‘nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta‘minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta‘minlashi kerak bo‘lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalarning korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma‘muriy sudlarni, xo‘jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta‘sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko‘rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho‘zib yuborilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo‘nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to‘g‘risidagi murojaatlarning, xabarlarining o‘z vaqtida olinishini ta‘minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, ushbu yo‘nalish 2018 — 2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o‘qitish, tanlash va joy-joyiga qo‘yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e‘lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDY organlarini isloh qilishni ham o‘z ichiga oladi.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma‘murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, ushbu yo‘nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi.

2017 — 2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

“Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo'llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo'nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilmoqda.

“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir “Yo'l xaritalari”ni ishlab chiqish, O'zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017-yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so'm va 8,3 milliard AQSh dollari yo'naltiriladi.

Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tuzilmoqda.

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo'nalishining har biri bo'yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan.

Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018 — 2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash ham yuklatilmoqda.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni,

davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)